

## O'QUVCHINING MUVAFFAQIYATGA ERISHISH SIRLARI

**Ro‘ziqulova Ziyoda Murodqul qizi**

*Sirdaryo viloyati*

*Guliston shahar*

*“Ideal Study” xususiy maktabi*

*6 - “A” sinfo ‘quvchisi.*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o‘quvchilarning muvaffaqiyatli ta’lim olishlari uchun zarur bo‘lgan asosiy omillar yoritilgan. Jumladan, maqsad qo‘yish, vaqt ni to‘g‘ri boshqarish, muntazam o‘rganish, motivatsiya va o‘z-o‘zini baholash kabi jihatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, ota-onalar va o‘qituvchilarning qo‘llab-quvvatlashi, zamonaviy texnologiyalardan unumli foydalanish ham o‘quvchining muvaffaqiyatini oshirishdagi muhim omil sifatida ko‘rsatiladi. Maqolada amaliy tavsiyalar va real hayotiy misollar orqali o‘quvchilarga o‘z oldiga maqsad qo‘yish va unga erishish yo‘llari ko‘rsatib beriladi.

**Kalit so‘zlar:** muvaffaqiyat, o‘quvchi, maqsad, o‘z-o‘zini rivojlantirish, motivatsiya, ta’lim, vaqt ni boshqarish, ota-ona, o‘qituvchi, texnologiya.

Biz insonlarga fikrlash, orzu qilish, izlanish va mehnat orqali oldimizga qo‘yan maqsadlarga erishish imkoniyati berilgan. Kundalik hayotimizdagi sa'y-harakatlarimiz, intilishlarimizning asosi — baxtli va mazmunli hayot kechirishga qaratilgan bo‘ladi. Har bir inson muvaffaqiyatni o‘z qarashlari asosida talqin qiladi: kimdir uchun bu — yaxshi bilim olish, boshqalar uchun esa odamlar bilan yaxshi muomala qilish yoki tinimsiz mehnatdir. Ammo qanday qarashdan qat’i nazar, muvaffaqiyat harakat va mehnatsiz bo‘lmaydi.

Agar muvaffaqiyatli insonlarning hayotini kuzatsak, ularning bolalikdagi biror yutug‘i yoki, aksincha, mag‘lubiyati bugungi darajaga yetishlariga turki bo‘lganini ko‘ramiz. Inson shaxsining shakllanishida atrof-muhit va tashqi ta’sirlar muhim ro‘l o‘ynaydi.

Zamonaviy maktab oldida turgan eng asosiy vazifalardan biri – ta’lim jarayonida ishtirok etuvchi barcha tomonlarning salohiyatini to‘liq namoyon qilishdir. Bunga

o‘quvchi, fan o‘qituvchisi, sinf rahbari, ota-onasi va umuman, jamiyatimizda kechayotgan modernizatsiya hamda innovatsion taraqqiyot sharoitida shaxsning tashabbuskorligi, ijodiy fikrlashi, noan’anaviy yechimlarni topish, kasb tanlash ko‘nikmasi, hayot davomida o‘rganishga tayyorligi va muvaffaqiyat sari intilishi kiradi.

Pedagogika nuqtayi nazaridan “muvaffaqiyat” tushunchasi ta’lim va tarbiya jarayonida yutuqlarga erishgan shaxs sifatida ko‘riladi. Bu tushuncha maktab o‘quvchisining o‘quvdagi yutuqlari, o‘qituvchining dars berishdagi samaradorligi yoki ota-onaning farzand tarbiyasidagi muvaffaqiyatlari ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin.

Muvaffaqiyat tushunchasi ikki xil – tor va keng ma’noda talqin etiladi. Kengroq yondashuvda, bu insonning o‘z ijodiy salohiyatini to‘liq ochib borishi va hayoti davomida erishgan barcha ijobiy natijalari orqali ifodalanadi.

Shu asosda ishlab chiqilgan “Muvaffaqiyatli” dasturining asosiy yo‘nalishlari o‘quvchilarning bilim sifatini oshirish va tarbiyani takomillashtirish g‘oyasini amalga oshirishga qaratilgan bo‘lib, u quyidagi to‘rt asosiy yo‘nalishni o‘z ichiga oladi: “Muvaffaqiyatli o‘quvchi”, “Muvaffaqiyatli o‘qituvchi”, “Muvaffaqiyatli sinf rahbari” va “Muvaffaqiyatli ota-onasi”.

Bu yo‘nalishlarni amalga oshirishda eng muhim vazifalardan biri – pedagogik madaniyat maktabining imkoniyatlaridan to‘liq foydalanish, o‘quvchilarning bilimga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ijodiy faoliyatlarini rag‘batlantirish, o‘qituvchilarning ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo‘llab-quvvatlash, ularning o‘z mehnat natijalarini baholash ko‘nikmasini shakllantirish va ota-onalarning maktab hayotidagi ishtirokini kuchaytirishdan iboratdir.

Har bir o‘quvchining hayotidagi eng muhim bosqichlardan biri bu — ta’lim olish davridir. Muvaffaqiyatli o‘quvchi bo‘lish esa faqat iqtidor bilan emas, balki mehnat, qat’iyat, to‘g‘ri yondashuv va hayotiy maqsadlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Birinchi navbatda, maqsad qo‘yish muhim. O‘z oldiga aniq va o‘lchovli maqsad qo‘ygan o‘quvchi bu yo‘lda qat’iy harakat qiladi. Masalan, “Bu chorakda matematika fanidan 5 baho olish” kabi maqsadlar o‘quvchini muntazam harakat qilishga undaydi.

Ikkinci muhim jihat — vaqtini to‘g‘ri boshqarish. Har kuni o‘qishga ajratilgan vaqt, dam olish va uy vazifalarini bajarish o‘rtasidagi muvozanat o‘quvchining samaradorligini oshiradi. Bu borada kundalik reja tuzish yaxshi yordam beradi.

Shuningdek, motivatsiya — muvaffaqiyatning asosiy kalitlaridan biridir. O‘zini rag‘batlantirish, yutuqlarini qadrlash va kichik g‘alabalardan quvonish o‘quvchida o‘ziga bo‘lgan ishonchni mustahkamlaydi.

O‘quvchi muvaffaqiyatining yana bir muhim jihat — o‘z-o‘zini rivojlantirishdir. Yangi bilimlarga intilish, mustaqil izlanish, kitob o‘qish va qo‘sishimcha mashg‘ulotlarga qatnashish orqali bilim doirasini kengaytirish mumkin.

O‘ziga ishongan o‘quvchilar – bu o‘z-o‘zini rivojlantirishni boshqara oladigan, tartibli, vaqtini qadrlaydigan, mehnatsevar, o‘z qobiliyatlarini doimiy ravishda rivojlantirib boradigan shaxslardir. Ular olimpiadalar va turli musobaqalarda faol ishtirok etib, yutuqlarga erishishga intilishadi. Shuningdek, insho va tezislar yozish, loyihalar ishlab chiqish hamda internet orqali bilim olish imkoniyatlaridan to‘liq foydalana oladilar.

Bunday muvaffaqiyatli o‘quvchilarni tarbiyalash uchun o‘qituvchi ham o‘z ishining ustasi bo‘lishi kerak. Buning uchun u o‘quv jarayoni va sinfdan tashqari faoliyatni puxta rejalshtirib, samarali boshqara olishi zarur. O‘qituvchi o‘z fanini chuqur bilishi, o‘quvchilarning xatti-harakatlariga sabr bilan yondashishi, ularni boshqarishda bosiqlik va mehr ko‘rsatishi kerak. Shuningdek, u o‘quvchilarni rejalshtirilgan ishlarga jalb eta olishi, ular bilan iliq va samimiy muloqotda bo‘lishi muhim sanaladi.

Bunda ota-onalar va o‘qituvchilarning roli ham katta. Ota-onalar mehribonligi, sabr-toqati, o‘qituvchining motivatsion yondashuvi o‘quvchining ichki dunyosini shakllantiradi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish, ya’ni onlayn darslar, mobil ilovalar, o‘quv platformalari orqali o‘z ustida ishlash — bugungi zamon talabi hisoblanadi.<sup>1</sup>

---

<sup>1</sup> Yo‘ldoshev J.G., Zamonaviy dars. Malaka oshirish muammolar, izlanishlar, yechimlar. A. Avloniy nomidagi XTXQTMOM. - T.; 2017yil.

Xulosa qilib aytganda, har bir o‘quvchi o‘zida mas’uliyat, qat’iyat va maqsad sari intilishni shakllantirsa, albatta, hayotda muvaffaqiyatlarga erisha oladi. Bu yo‘lda unga to‘g‘ri yo‘naltirish, doimiy rag‘bat va mustahkam irodaning yordami katta bo‘ladi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1. Nizamova, S. H. “The Role of Pedagogical Games in the Personal Development of Primary School Students.” International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
2. Nizamova, Sh U., and Munosibxon Ganieva. “Didactic Basics of Teaching Elementary School Technology Science.” International Journal of Innovative Research in Science, Engineering and Technology.
3. Azizzodjayeva N. N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. O‘quv qo‘llanma. - T.; 2013yil.
4. Yo‘ldoshev J.G., Zamonaviy dars. Malaka oshirish muammolar, izlanishlar, yechimlar. A. Avloniy nomidagi XTXQTMOM. - T.; 2017yil.